
TABRIKNOMA

Assalomu alaykum aziz do'stlar, qadri tumandoshlar!

Avvalambor, mamlakatimizning eng ulug', eng aziz bayrami - O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 31 yilligi bilan Sizlarni, sizlar orqali oila a'zolaringizni va barcha tumandoshlarimizni samimiy muborakbod etaman!

Zero, bu ayyom xalqimizning hur va ozod yashashi, baxtli hayoti, farovon turmushiga asos bo'luvchi eng muhim sana sifatida tariximiz zarvaraqlariga bitilgan. O'tgan qisqa davrda jonajon O'zbekistonimiz mashaqqatli, shu bilan birga, sharaflı istiqlol yo'lini bosib o'tdi. Ming shukrona bilan aytishimiz mumkinki, bugun ajdodlarimizning ezgu niyatlari, orzulari ijobat bo'ldi. Ayni kunlarda ushbu qutlug' shodiyonani butun respublikamiz ahli qatori rishtonliklar ham ko'tarinki ruh bilan qarshi olmoqdalar. "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!" shiori ostida bayram oldidan ziyoratgoh va qabristonlarda, ko'cha va xiyobonlarda hasharlar uyushtirilib, obodonlashtirish ishlari olib borildi. O'tgan 31 yil ichida yurtimizda erishilgan yutuqlar va qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlarni sarhisob etadigan bo'lsak, tumanimizda ham ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma'rifiy, ta'lim, tibbiyot, sport, maktabgacha ta'lim va qurilish sohalarida mislsiz o'zgarishlarning guvohi bo'lib turibmiz. Jumladan, tumanimiz hududlarini zamonaviy qiyofaga keltirish, aholining turmush sharoitini yaxshilash, munosib uy-joylar va zarur infratuzilma bilan ta'minlash asnosida bunyodkorlik ishlari jadal sur'atlarda davom ettirilmoqda. Yana bir bor tumanimiz ahlini Mustaqillik bayrami bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman! Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, Jonajon O'zbekistonimiz omon bo'lsin!

Sufhonjon SOLIEV, Rishton tumani hokimi.

2022-08-31 23:29:29